



ILMIY TURIZM UCHUN MAVJUD IMKONIYATLAR VA SOHADAGI MUAMMOLAR

Panjiyev Abdullo Ixtiyor o'g'li
Qarshi Davlat Universiteti Iqtisod fakulteti
Turizm va mehmondo'stlik yo'nalishi talabasi
n04458821@gmail.com

Annotatsiya: Ushbu maqolada O'zbekistonda ilmiy turizm rivoji uchun mavjud imkoniyatlar va sohadagi muammolar tahlil qilinadi. Mamlakatimizdagi boy ilmiy-tarixiy meros, tabiiy geografik obyektlar va ilmiy ekspiditsiyalar uchun mos mazkur turizm turini rivojlantirishda muhim omillar sifatida ko'rib chiqiladi. Shu bilan birga, infatuzilma, marketing va kadrlar salohiyatidagi muammolar aniqlanib, ularni bartaraf etish bo'yicha tavsiyalar beriladi.

Kalit so'zlar: ilmiy turizm, ilmiy meros, ekspiditsiya, infatuzilma, ilmiy sayohat, O'zbekiston

Аннотация: В статье анализируются существующие возможности и проблемы в развитии научного туризма в Узбекистане. Богатое научно-историческое наследие, природные объекты и зоны, подходящие для проведения экспедиций, рассматриваются как ключевые факторы развития данной отрасли. Также освещаются инфраструктурные, кадровые и маркетинговые проблемы, предлагаются рекомендации по их устранению.

Ключевые слова: научный туризм, научное наследие, экспедиция, инфраструктура, научное путешествие, Узбекистан

Annotation: This article analyzes the existing opportunities and challenges in the development of scientific tourism in Uzbekistan. The country's rich scientific and historical heritage, natural geographic sites, and areas suitable for scientific expeditions are considered as key factors for promoting this type of tourism. The paper also identifies infrastructure, marketing, and human resource challenges and provides recommendations for overcoming them.

Keywords: scientific tourism, scientific heritage, expedition, infrastructure, scientific travel, Uzbekistan

Kirish. Ilmiy turizm – bu fan, arxeologiya, tarix, biologiya, geologiya, ekologiya kabi sohalarga oid izlanishlar bilan bog'liq sayohat turlaridir. Bu turdagi turizm sayyohlar va olimlarga nafaqat yangi ma'lumotlar olish, balki ilmiy tajriba orttirish, ilm-fan yutuqlari bilan tanishish, xalqaro hamkorlikni kengaytirish imkonini ham beradi. O'zbekiston boy tarixiy-madaniy merosi, tabiiy geografik hududlari, arxeologik yodgorliklari va ilmiy tadqiqotlar olib borilishi mumkin bo'lgan manzillari bilan ilmiy turizm uchun ulkan salohiyatga ega. Biroq, bu salohiyat to'liq ishga solinmagan. Mazkur maqolada O'zbekistonda ilmiy turizmni rivojlantirish uchun mavjud imkoniyatlar va sohaga to'sqinlik qilayotgan muammolar tahlil qilinadi.



Metodologiya. Ushbu maqola tayyorlanishida ilmiy va statistik adabiyotlar tahlil qilindi, ilg'or xorijiy tajribalar o'rganildi. Shuningdek, O'zbekistonning ilmiy-tarixiy, ekologik va tabiiy zaxiralari joylashgan hududlarida kuzatishlar olib borildi. Metod sifatida quyidagilar qo'llanildi:

1.Kuzatuv va joyiga chiqib o'rganish: Mo'ynoq, Qizilqum, Ustyurt platosi, Surxondaryo tog'li zonalari kabi joylar o'rganildi.

2.So'rovnoma va intervyular: Ilmiy xodimlar, tarixchilar, ekologlar, biologlar, turizm tashkilotchilari bilan intervyular o'tkazildi.

3.Adabiyotlar tahlili: UNESCO, UNWTO, O'zbekiston Fanlar akademiyasi va xalqaro ilmiy-turistik nashrlar tahlil qilindi.

4.Taqqoslash: Ilmiy turizm rivojlangan davlatlar – Misr, Gretsiya, Yaponiya va Germaniya tajribasi asosida tahlil qilindi.

Natijalar. Tadqiqot natijalari O'zbekistonda ilmiy turizmni rivojlantirish uchun quyidagi asosiy imkoniyatlarni aniqladi:

1.Boy ilmiy-tarixiy meros. Afrasiyob, Qal'a qoldiqlari, Topraqqal'a, Dalvarzintepa, Fayoztepa kabi yodgorliklar olimlar va sayyohlar uchun katta qiziqish uyg'otadi.

2.Tabiiy-geografik hududlar. Orolbo'yi ekologik inqiroz zonasi ilmiy ekspeditsiyalar uchun noyob hudud hisoblanadi.

Surxondaryo va Hisor tizmalari geologlar, biologlar va ekologlar uchun muhim manba hisoblanadi.

3.Ilmiy muassasalar va kadrlar. O'zbekiston Fanlar akademiyasi, universitetlar, ilmiy institutlar va markazlar ilmiy turizmni ilmiy asosda rivojlantirish imkonini beradi. Toshkent, Buxoro, Samarqand, Urganchda joylashgan ilmiy markazlar xorijiy hamkorlik uchun ochiqdir.

4.Madaniy-ilmiy tadbirlar. Toshkentda har yili o'tkaziladigan ilmiy yarmarkalar, arxeologik forumlar va ekspeditsiyalar sayyohlarni ilmiy turizmga jalb etish imkonini yaratadi.

Muammolar

1.Infratuzilma sustligi – Arxeologik yoki ekologik obyektlarga olib boruvchi yo'llar, transport, mehmonxonalar va aloqa tizimlari yetarli emas.

2.Marketing va axborot taqdimoti zaifligi – Ilmiy turizm mahsus yo'nalish sifatida yetarlicha reklama qilinmaydi.

3.Gid va mutaxassislar tanqisligi – Sayyohlar uchun ilmiy ma'lumot bera oladigan, xorijiy tilni biladigan gidlar kam.

4.Xalqaro hamkorlik pastligi – Ko'plab ilmiy-tarixiy joylar xalqaro darajada hali tanilmagan, ilmiy loyihalar cheklangan.

5.Tashkiliy va byurokratik to'siqlar – Ekspeditsiyalar uchun ruxsat olish, chegaralangan hududlarga kirish, ilmiy asbob-uskunalarni olib kirish tartibi murakkab.

Munozara. Ilmiy turizm dunyo miqyosida barqaror rivojlanayotgan soha hisoblanadi. Masalan, Germaniyada texnoparklar, laboratoriyalar va tarixiy obyektlar ilmiy turizm marshrutlariga kiritilgan. Misrda esa arxeologik yodgorliklar asosida sayyohlar oqimi shakllantirilgan. O'zbekistonda bu yo'nalish hali keng qamrovli bo'lmasa-da, imkoniyatlar mavjud. Shu sababli quyidagi takliflar muhim hisoblanadi.

Ilmiy turizm zonalari yaratish: Mo'ynoq, Qizilqum, Termiz va Xorazm kabi joylarda ilmiy turistik markazlar tashkil etish.



Gid va tarjimonlar tayyorlash: Fan sohalari bo'yicha mutaxassis gidlarni tayyorlash uchun maxsus kurslar.

Ilmiy festivallar va konferensiyalar orqali xalqaro ilmiy sayyohlarni jalb qilish.

Ilmiy marshrutlar ishlab chiqish: Masalan, "Ulug'bek observatoriyasi – Mirzo Bobur botanika bog'i – Mo'ynoq ekologik ekspeditsiyasi" yo'nalishi.

Raqamli platformalarni yaratish: Ilmiy-turistik joylar bo'yicha interaktiv xaritalar, AR texnologiyalari orqali virtual ko'rgazmalar.

1-jadval

Ilmiy turizm yillik o'sish ko'rsatkichlari

Yillar	Bozor hajmi	O'sish surati
2021-yil	320 mlrd \$	6,5 %
2022-yil	341 mlrd \$	6,6 %
2023-yil	371 mlrd \$	8,9 %
2024-yil	382 mlrd \$	12,1 %

2-jadval

Ilmiy turizm rivojlangan davlatlar va asosiy ilmiy turizm yo'nalishlari

Davlat	Asosiy yo'nalishlar
Misr	Arxeologik ekspiditsiyalar
Germaniya	Texnoparklar ilmiy yarmarkalar
Hindiston	Ilmiy tadqiqotlar
Braziliya	Biologik tadqiqotlar
Yaponiya	Texnologik markazlar

Xulosa va takliflar: Ilmiy turizm hali keng ommaga tanish bo'lmasa-da, u jahon miqyosida o'sib borayotgan, istiqbollari katta bo'lgan turizm turi hisoblanadi. Misr, Germaniya, Hindiston, Braziliya va Yaponiya bu yo'nalishda yetakchi davlatlar sanaladi. O'zbekiston ham o'zining tarixiy va tabiiy salohiyatini ilmiy turizmga yo'naltirsa, iqtisodiy va ilmiy foydaga ega bo'lishi mumkin. Zero O'zbekistonda ham ilmiy turizmni rivojlantirish uchun yetarlicha imkoniyat va salohiyat mavjud. Faqatgina sohdagi muammolarni bartaraf etish va ularga samarali yechim topish zarur. Chunki ilmiy turizm yildan yilga rivojlanib borayotgan turizm tarmog'i hisoblanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. The Business Research Company Educational Tourism Global Market Report 2024 Global bozor hajmi, 2019–2024 yillik o'sish sur'atlari, 2028 yil prognozlar.

<https://www.thebusinessresearchcompany.com/report/educational-tourism-global-market-report>

2. UNWTO (World Tourism Organization) Tourism and the SDGs: Scientific and Educational Tourism Ilmiy turizm barqarorlik va xalqaro strategiyalar doirasida qanday rivojlanmoqda. <https://www.unwto.org/tourism-and-the-sdgs/scientific-and-educational-tourism>

3. Ritchie, B., & Crouch, G. (2021) Scientific Tourism: Research Agenda.

Ilmiy turizm konsepsiyasi, tadqiqot yo'nalishlari.

<https://link.springer.com/article/10.1007/s40558-021-00197-7>

4. Scientific Tourism: Current Trends and Opportunities, ResearchGate. Ilmiy hamkorlik, universitetlararo sayohatlar.



<https://www.researchgate.net/publication/354879128> Scientific Tourism Current Trends and Opportunities

5. Tourism Review International Scientific Tourism and Cultural Destinations. Ilmiy va madaniy obyektlarga sayohatlar haqida tahlil

<https://www.ingentaconnect.com/content/cog/tri/2022/00000026/00000001/art004>

6. Germany Travel – Research & Knowledge Tourism

<https://www.germany.travel/en/inspiring-germany/knowledge-tourism.html>

7. Egypt Ministry of Tourism – Scientific Expeditions <https://egy monuments.gov.eg/>

8. World Atlas – Best Countries for Educational/Scientific Tourism

<https://www.worldatlas.com/articles/best-countries-for-educational-tourism.html>

9. UNESCO – Cultural and Scientific Tourism

<https://en.unesco.org/themes/culture-sustainable-development/tourism>

10. OECD (2022). Tourism Trends and Policies Ilmiy va ta'limiy turizmning davlat siyosatlariga ta'siri.

<https://www.oecd.org/cfe/tourism/oecd tourism trends and policies.htm>

11. Erasmus+ Project Results – Educational and Scientific Mobility Project

<https://erasmus-plus.ec.europa.eu/projects>

12. Nature-based Scientific Tourism – Global Environment Facility Ekoturizm bilan bog'liq ilmiy turizm. <https://www.thegef.org/>